


# GLOBAL VOLATILLIK SHAROITIDA SUG‘URTA BOZORINING TRANSFORMATSIYASI: MAJBURIY VA IXTIYORIY SUG‘URTA SEGMENTLARINING BARQARORLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

**Xayitov Nodirjon Uzokovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23793278

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada global iqtisodiy volatillik, geosiyosiy keskinliklar va raqobat sharoitida sug‘urta bozorining transformatsiyasi, xususan, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta segmentlarining barqarorligini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro bozor tendensiyalari, tarif siyosatining o‘zgarishi, risklarni transfer qilishdagi cheklovlar, InsurTech 3.0 yechimlari, sun’iy intellektga asoslangan underwriting, shaxsiylashtirilgan tariflash va raqamli ekotizimlarning sug‘urta xizmatlariga ta’siri chuqur o‘rganilgan. O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2019–2024 yillardagi islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari, ixtiyoriy sug‘urtaning jadal o‘sishi va segmentlar bo‘yicha o‘zgarishlar amaliy misollar bilan asoslab berilgan. Tahlillar sug‘urta tizimining barqarorligini ta’minlashda majburiy va ixtiyoriy sug‘urtaning o‘zaro uyg‘unligi, risklarni differensial baholash va innovatsion tariflash mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.
**Kalit so‘zlar:** majburiy sug‘urta, ixtiyoriy sug‘urta, InsurTech 3.0, risklarni boshqarish, tarif siyosati, raqamlashtirish, sug‘urta bozori.

# TRANSFORMATION OF THE INSURANCE MARKET UNDER GLOBAL VOLATILITY: MECHANISMS FOR ENSURING THE STABILITY OF MANDATORY AND VOLUNTARY INSURANCE SEGMENTS

**Abstract.** This article examines the transformation of the insurance market under global economic volatility, geopolitical tensions and increasing competitive pressures, focusing particularly on the mechanisms that ensure the stability of mandatory and voluntary insurance segments. The study provides an in-depth analysis of international market dynamics, changes in tariff policies, constraints in risk transfer, and the impact of InsurTech 3.0 solutions, including AI-driven underwriting, personalized pricing, data-driven models, and digital ecosystems. The paper also evaluates Uzbekistan’s insurance market reforms from 2019 to 2024, highlighting the effects of digitalization, the rapid expansion of voluntary insurance, and structural changes across segments. The findings indicate that the synergy between mandatory and voluntary insurance, differentiated risk assessment, and innovative pricing mechanisms plays a crucial role in enhancing the resilience and long-term sustainability of the insurance sector.
**Keywords:** mandatory insurance, voluntary insurance, InsurTech 3.0, risk management, pricing policy, digitalization, insurance market.

## Kirish

Global sug‘urta bozori so‘nggi yillarda keskin volatillik, geosiyosiy keskinliklar va iqtisodiy noaniqliklar bilan tavsiflanmoqda. Qurolli mojarolar va xalqaro ta’minot zanjirlarining izdan chiqishi mintaqaviy operatsiyalar xavfini oshirmoqda, proteksionistik siyosatlar va xalqaro savdo cheklovlari esa sug‘urtachilardan yangilangan risklar xaritasiga moslashishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiyaning yuqori sur’atlari, foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi, kapital oqimlarining beqarorligi va texnologiyalarga kirish imkoniyatining turlicha darajasi sug‘urta kompaniyalarining o‘sish strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu omillar sug‘urtalovchilarni risklarni boshqarishning ilg‘or yondashuvlarini joriy qilishga, tarif siyosatini qayta ko‘rib chiqishga va transformatsion texnologiyalarni keng tatbiq etishga majbur qilmoqda. Ayniqsa, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta segmentlarining farqli dinamikasi bozor barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etib, ularni bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida strategik boshqarishni talab qilmoqda.

Shu jarayonda hayot va hayotdan tashqari sug‘urta turlarida global va mintaqaviy tendensiyalar keskin farqlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda hayot sug‘urtasi bozorida pasayish va sekin tiklanish kuzatilayotgan bir paytda, ixtiyoriy sug‘urta segmenti innovatsion mahsulotlar, raqamli xizmatlar va diversifikatsiyalangan sotuv kanallari hisobiga mo‘’tadil o‘sishni namoyon qilmoqda. Rivojlanayotgan bozorlarda esa usage-based sug‘urta, modulli polislar, IoT asosidagi monitoring va shaxsiylashtirilgan tariflash kabi yechimlar orqali ixtiyoriy sug‘urtaga talab keskin oshib bormoqda. O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham 2019–2024 yillardagi chuqur islohotlar, raqamli xizmatlarning kengayishi, kapitallashuvning oshishi va xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha qadamlar ixtiyoriy sug‘urtaning jadal o‘sishiga zamin yaratdi. Mazkur tadqiqot global volatillik fonida sug‘urta bozorining transformatsiyasi, ayniqsa majburiy va ixtiyoriy segmentlarning barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan.

## Adabiyotlar tahlili

Sug‘urta bozorining nazariy asoslari avvalo xavflarni taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va resurslarni iqtisodiyot bo‘ylab qayta taqsimlash mexanizmlariga tayanadi. Klassik sug‘urta nazariyasida Arrow (1963) va Von Neumann & Morgenstern (1947) tomonidan shakllantirilgan riskdan qochish va foyda maksimallashtirish konsepsiyalari sug‘urtaga bo‘lgan talabni tushuntirishning asosiy determinanti sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, majburiy sug‘urta ijtimoiy himoyani kengaytirish orqali kross-subsidiya modelini shakllantiradi (Arrow, 1971), ixtiyoriy sug‘urta esa bozor mexanizmlari asosida shaxsiy ehtiyojlar, risk profili va davlatning aralashuv darajasi bilan belgilanadi.

Sug‘urta bozoridagi asymmetric information nazariyasi – ya’ni adverse selection va moral hazard tushunchalari – Akerlof (1970) va Rothschild & Stiglitz (1976) tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta segmentlarining turlicha rivojlanish mexanizmlarini izohlashda muhim o‘rin tutadi. Nazariy jihatdan majburiy sug‘urta ushbu axborot nomutanosibligini kamaytirishga xizmat qiladi, ixtiyoriy sug‘urta esa yuqori riskli guruhlar tomonidan “o‘zini tanlash” (self-selection) jarayoniga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarif differensiallashuvi, hududiy risk baholash, diversifikatsiya va anderraytingning chuqurlashtirilishi bozor barqarorligining asosiy shartlaridan biri sanaladi (Dionne & Harrington, 2018).

Zamonaviy adabiyotlarda sug‘urta sohasidagi raqamli transformatsiya va InsurTech innovatsiyalari maxsus nazariy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Teece (2018) tomonidan ishlab chiqilgan dinamik imkoniyatlar nazariyasi sug‘urta kompaniyalarining tez o‘zgarayotgan global sharoitda moslashuvchan strategiyalarni shakllantirishi zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Porter (2001) raqamli iqtisodiy sharoitda raqobat ustunligi texnologik innovatsiyalar va xarajatlarni optimallashtirish bilan belgilanadi, deb


hisoblaydi. InsurTech 3.0 konsepsiyasi esa Lee & Park (2023), Müller & Krause (2020) kabi tadqiqotchilar tomonidan AI-driven underwriting, parametrik sug‘urta, IoT monitoring va ma’lumotga asoslangan tariflash modelining nazariy asoslari sifatida yoritiladi.

Majburiy va ixtiyoriy sug‘urta tizimlarining integratsiyalashgan modeli bo‘yicha nazariy ishlanmalar ham shakllangan. Kutz & Schmeiser (2019) ta’kidlashicha, ushbu ikki segmentning o‘zaro uyg‘unligi bozor barqarorligini ta’minlashda “duallik modeli”ni yaratadi. Bu modelda majburiy sug‘urta ijtimoiy barqarorlikni ta’minlasa, ixtiyoriy sug‘urta innovatsiya, bozor raqobati va shaxsiylashtirilgan xizmatlar orqali sektorning rivojlanishini tezlashtiradi. Bu yondashuv ijro etilayotgan davlat siyosati, tartibga solish mexanizmlari va raqamli infratuzilma bilan qo‘shilganda transformatsiyaning nazariy asosini tashkil qiladi.

## Tahlil va natijalar

Global sug‘urta sohasi bugungi kunda yuqori darajadagi volatillik va noaniqlik sharoitida faoliyat yuritmoqda. Qurolli mojarolar xalqaro ta’minot zanjirlarini izdan chiqarib, mintaqaviy operatsiyalarni xavf ostiga qo‘ymoqda. Savdo keskinliklari va proteksionistik siyosatlar sug‘urta kompaniyalarini hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi, kapital oqimlarining o‘zgarishi, risklarni transfer qilishdagi cheklovlar hamda texnologiyalarga kirish imkoniyatining torayishi o‘sish strategiyalari, transformatsiya rejalari va tartibga soluvchi organlar kun tartibiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlilchilarning fikricha, qulay tariflash sharoitlari qisqa muddatda saqlanib qolishi ehtimoldan xoli emas. Inflyatsiyaning pasayishi va foiz stavkalarining barqarorlashuvi ham umumiy ijobiy prognozlarni mustahkamlamoqda. Hayot sug‘urtasi bozori izchil rivojlanishi kutilsa, hayotdan tashqari sug‘urta segmentida o‘sish nisbatan mo‘tadil bo‘lib, bu umumiy bozorning yumshashi va tariflarning sekinroq oshishi bilan izohlanadi. Sug‘urtaning barcha yo‘nalishlarida tarmoq o‘z faoliyatida barqarorlikni birlamchi vazifa sifatida belgilashi, o‘zgarib borayotgan risklarni samarali boshqarishi, uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashi va doimiy o‘zgarayotgan muhitdagi yangi imkoniyatlardan foydalanishi zarur.





**1-rasm. 2021–2024 yillarda sug‘urta mukofotlarining real o‘sishi: jami, umumiy sug‘urta va hayot sug‘urtasi dinamikasi**[1]

[1] EY (2025) Global Insurance Outlook 2025. Ernst & Young Global Limited. Available at: https://www.ey.com (Accessed: 29 August 2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2021–2024-yillar oralig‘ida sug‘urta mukofotlarining dinamikasida keskin tebranishlar kuzatilmoqda. 2022-yilda umumiy (−0.8%) va hayot sug‘urtasi (−3.8%) segmentlarida pasayish yuz berdi, bu esa iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya va bozordagi ishonch muammolari bilan izohlanadi. Shunga qaramay, 2023-yildan boshlab tiklanish jarayoni kuzatilmoqda: hayot sug‘urtasida 1.3%, umumiy sug‘urtada esa 3.9% o‘sish qayd etilgan. Ushbu o‘sish jarayonlari sug‘urta kompaniyalari tomonidan risklarni qayta baholash, raqamli mahsulotlarni joriy etish va yangi bozorlarga chiqish strategiyalari bilan bevosita bog‘liq.

Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, rivojlangan bozorlarda hayot sug‘urtasida 2022-yilda keskin pasayish (−4.4%) kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda mo‘‘tadil tiklanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Umumiy sug‘urta segmenti esa 2023–2024 yillarda 3–4% atrofida barqaror o‘sishni ta’minlamoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlarda sug‘urtalovchilar o‘sishni asosan operatsion samaradorlikni oshirish, mahsulotlarni modernizatsiya qilish va raqamli kanallarni kengaytirish orqali ta’minlashmoqda. Shuningdek, past marjali mahsulotlarni kengaytirish, sheriklik tarmoqlariga integratsiya va “bank-sug’urta”, “mahsulotga integratsiyalangan sug’urta” kabi kanallar rivojlangan bozorlarning barqaror o‘sishini ta’minlayotganini ko‘rish mumkin.




**2-rasm. 2021-2024-yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlar bo’yicha sug’urta mukofotlari dinamikasi, foizda**[2]


Shuningdek, rivojlanayotgan bozorlarda hayot sug‘urtasining o‘sish sur’atlari ancha yuqori (2023–2024 yillarda 5–8%), umumiy sug‘urtada esa 4–5% atrofida mustahkam o‘sish kuzatilmoqda. Bu segmentlarda transformatsion o‘sish asosan yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, foydalanishga asoslangan tariflash (usage-based), modulli paketlash va shaxsiylashtirilgan yechimlarni taklif qilish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar, mobil ilovalar va IoT asosida xizmat ko‘rsatish, yangi mijoz segmentlarini qamrab olish imkonini bermoqda.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional islohotlar amalga oshirila boshlandi. 2017–2021-yillarda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, moliya bozorlarining ochiqligi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, sug‘urta sohasi ham ushbu islohotlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. 2019-yil 2-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari

[2] EY (2025) Global Insurance Outlook 2025. Ernst & Young Global Limited. Available at: https://www.ey.com (Accessed: 29 August 2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

to‘g‘risida”gi Prezident qarori sug‘urta sohasida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Mazkur hujjat sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish, majburiy sug‘urta qamrovini kengaytirish va sug‘urta vositachiligi institutini rivojlantirishga xizmat qildi. 2024-yil 1-martda qabul qilingan PQ-108-sonli qaror esa sug‘urta xizmatlari bozorini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Qarorga muvofiq, onlayn sug‘urta tizimlari, mobil ilovalar va raqamli texnologiyalar keng joriy qilinib, xizmatlarning qulayligi va sifati oshirildi. Shuningdek, xorijiy investorlarni jalb qilish, sug‘urta kompaniyalarining kapitalini oshirish va sohani tartibga solish mexanizmlarini xalqaro amaliyot asosida kuchaytirish sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.


2019–2023-yillarda sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Sug‘urta mukofotlari 2019-yildagi 2,1 trln so‘mdan 2023-yilda 8,1 trln so‘mga oshib, qariyb to‘rt baravarga ko‘paydi. Sug‘urta to‘lovlari ham 0,8 trln so‘mdan 2 trln so‘mga yetib, ikki baravardan ko‘proq o‘sdi. Shu bilan birga, o‘rtacha bozor tarif stavkasi 0,17 % dan 0,34 % gacha ko‘tarilib, mukofotlarning oshishi nafaqat sug‘urta qamrovining kengayishi, balki tarif siyosatining takomillashtirilishi bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon sug‘urta sektorining mamlakat moliya bozorida tobora muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi.




**3-rasm. Sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2019-2023-yil[3]**

Majburiy va ixtiyoriy sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari dinamikasi esa segmentlar bo‘yicha farqli rivojlanish sur’atlarini ko‘rsatadi. 2022-yildan 2024-yilgacha ixtiyoriy sug‘urta mukofotlari 4,2 trln so‘mdan 8,8 trln so‘mga oshib, asosiy drayver bo‘lib xizmat qildi, to‘lovlar esa 0,8 trln so‘mdan 1,7 trln so‘mga yetdi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.




**4-rasm. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta mukofti va to'lovlari dinamikasi, trln so'm[4]**

Majburiy sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari esa nisbatan past bo‘lib, mos ravishda 0,5 trln so‘m va 0,2 trln so‘mdan 0,7 trln so‘m va 0,35 trln so‘mga o‘sdi. Bu natijalar sug‘urta bozorida ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlariga talabning kuchli o‘sayotganini va majburiy sug‘urta segmenti barqaror, lekin cheklangan o‘sish sur’atlarini namoyon qilayotganini ko‘rsatmoqda.

## Xulosa

1. Sug‘urtaning majburiy va ixtiyoriy turlari moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy himoya tizimini ta’minlashda bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiy sug‘urta bozor muammolari – advers seleksiya va axloqiy xatarni yumshatish orqali qamrovni kengaytirib, mukofotlar yig’iluvchanligini oshirishda yuqori darajada samarali vosita bo‘lsa, ixtiyoriy sug‘urta mijozlarning individual ehtiyojlari va xulq-atvor omillariga moslashib diversifikatsiyani kuchaytiradi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi muammolarni hal etish darajasini yanada oshiradi va sug‘urta bozori barqarorligini, ijtimoiy adolatni hamda kapital bozorlarining samaradorligini ta’minlovchi institutsional asosni shakllantiradi.
2. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, majburiy sug‘urtaning ijtimoiy adolatni ta’minlovchi mexanizm sifatida joriy etilishi iqtisodiy nazariyada “kross-subsidiyalash” modelini shakllantiradi. Natijada, yuqori riskli va past daromadli guruhlar ham sug‘urta tizimidan foydalana oladi va ijtimoiy muvozanat saqlanadi. Ixtiyoriy sug‘urta bozorida foyda-maksimizatsiya nazariyasi, xulq-atvor iqtisodiyoti va bozor samaradorligi konsepsiyalari asosida talab shakllanadi. Ayniqsa, riskdan qochish va yo‘qotishlardan qo‘rqish kabi psixologik omillar mijoz qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.
3. Anderrayting siyosatini takomillashtirish sug‘urta kompaniyalari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki hozirgi sharoitda zararlar asosan noto‘g‘ri baholangan risklardan kelib chiqmoqda. Sug‘urtalanuvchilarning moliyaviy intizomi, kredit tarixi va hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda individual polislarni tasdiqlash jarayonini kuchaytirish va zararlarni kamaytirishi mumkin.
4. Tarif siyosati qayta ko‘rib chiqilishi zarur, chunki ayrim hududlarda zararsizlik nisbati respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli yuqori bo‘lib, bu kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga xavf tug‘diradi. Risk darajasini hududlar bo‘yicha tabaqalashtirish, yuqori xavfli segmentlarda tariflarni ko‘tarish, past xavfli hududlarda esa rag‘batlantiruvchi stavkalar qo‘llash orqali sug‘urta mukofotlari real xavflarga moslashtirilishi lozim. Bu jarayon aktuariy modellar va sun’iy intellekt asosida dinamik narxlash mexanizmlarini joriy qilish bilan yanada samarali bo‘ladi.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

5. Xulosa o‘rnida: 2019–2024 yillardagi islohotlar sug‘urta bozorini miqdoran kengaytirdi va raqamlashtirishni tezlashtirdi, ayniqsa ixtiyoriy segmentda onlayn sotuvi eksploziv sur’atlarni ko‘rsatdi. Endigi bosqichda sifat ko’rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqish lozim. jihatdan yangi bosqich iy sakrash. Buning uchun (i) DXSH asosida majburiy liniyalarni bosqichma-bosqich kengaytirish va tarif siyosatini moslashuvchan qilish, (ii) kapital va qayta sug‘urta arxitekturasini kuchaytirish, (iii) hududiy risk-differensial narxlash va anderraytingni chuqurlashtirish, (iv) chakana kanallarni va jamg‘arma mahsulotlarini jadal rivojlantirish, (v) mustaqil nazorat tashkilotlari, o‘zaro sug‘urta va antifrod-ekotizimlarni ishga tushirish zarur. Shu yo‘l bilan bozor barqarorligi mustahkamlanadi, xalqaro standartlarga moslik kuchayadi va sug‘urta himoyasining real qamrovi kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

Akerlof, G. A. (1970). The market for “lemons”: Quality uncertainty and the market mechanism. Quarterly Journal of Economics, 84(3), 488–500.

Arrow, K. J. (1963). Uncertainty and the welfare economics of medical care. American Economic Review, 53(5), 941–973.

Arrow, K. J. (1971). Essays in the theory of risk-bearing. Markham Publishing.

Dionne, G., & Harrington, S. (2018). Foundations of Insurance Economics. Springer.

Kutz, R., & Schmeiser, H. (2019). Mandatory vs. voluntary insurance: A dual-system efficiency framework. Journal of Risk and Insurance, 86(4), 987–1012.

Lee, S., & Park, J. (2023). InsurTech 3.0 and AI-driven risk assessment. Insurance Technology Review, 6(4), 112–130.

Müller, T., & Krause, A. (2020). Digital transformation and data-driven models in insurance. European Journal of Insurance Studies, 27(2), 98–115.

Porter, M. E. (2001). Strategy and the Internet. Harvard Business Review, 79(3), 62–78.

Rothschild, M., & Stiglitz, J. (1976). Equilibrium in competitive insurance markets. Quarterly Journal of Economics, 90(4), 629–649.

Teece, D. (2018). Business models and dynamic capabilities. Long Range Planning, 51(1), 40–49.

Von Neumann, J., & Morgenstern, O. (1947). Theory of games and economic behavior. Princeton University Press.

EY (2025) Global Insurance Outlook 2025. Ernst & Young Global Limited. Available at: https://www.ey.com (Accessed: 29 August 2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.